


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI



M.N.PRIMOV, T.R.SAFAROVA

**“Sotsiologiya” fanidan amaliy mashg‘ulot
o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma**

TOSHKENT-2017

M.N.Primov, T.R.Safarova “Sotsiologiya” fanidan amaliy mashg’uloti o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Bakalavrning barcha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun uslubiy qo‘llanma. –T.: TMI, 2017. – 34 b.

Sotsiologiya gumanitar fanlar doirasidagi shunday yo‘nalishki, u jamiyat va uning ijtimoiy tizimini tashkil etadigan tarkibiy qismlarining rivojlanish va mavjud bo‘lish qonuniyatlarini, turli sotsial jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va kishilarning sotsial xulq-atvorinining qonuniyatlarini o‘rganadi.

Fanning asosiy mohiyati sotsiologiya rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, fanning institutlashgan shakllari, ijtimoiy fikrning tarixiy rivojlanishi, fanlari tizimida sotsiologiyaning o‘rni, sotsiologiya predmeti va ob’ektini tushunishdagi ilmiy nazariyalar, uning tushunchalar apparatini ko‘rib chiqishdan iborat.

Fanning nazariy asoslari dolzarb sotsial jarayonlar, sotsial struktura va sotsial tizimlarning mavjud bo‘lishi va rivojlanish muammolari, jamiyat sotsio-madaniy tizim sifatida, shaxs sotsial munosabatlarning ob’ekti va sub’ekti sifatida, sotsial munosabatlar, sotsial jamoalar, sotsial aloqalar, sotsial tashkilotlar, guruhlar, sotsial institutlar va institutlashgan munosabatlar, jamiyatdagi sotsial o‘zgarishlarni batafsil bayon qilish bilan mos keladi.

“Sotsiologiya” fanidan amaliy mashg’ulot o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma kafedra (2017 yil “18” apreldagi “17” - sonli) majlisida muhokamadan o‘tkazilgan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

M.N.Primov

Toshkent moliya instituti o‘quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2017 yil “___” _____dagi № __/___ son qarori).

O‘quv-uslubiy Kengash kotibi

U.K.Yakubov

Taqizchilar:	I.Qo‘ng‘irov - TMI, “Falsafa va O‘DJQNA” kafedrasi dotsenti, t.f.n. F.Parmanov - M.Ulug‘bek nomidagi “O‘ZMU” “Sotsiologiya” kafedrasi dotsenti, s.f.n.
---------------------	---

MUNDARIJA:

Kirish

- 1. “Sotsiologiya” fani predmeti, ob’ekti, vazifalari va ijtimoiy fanlar tizimidagi o’rni**
- 2. Sotsiologiyaning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari**
- 3. Jamiyat dinamik tizim sifatida. Ijtimoiy stratifikatsiya**
- 4. Shaxs sotsiologiyasi**
- 5. Ma’naviy hayot sotsiologiyasi**
- 6. Iqtisodiy-siyosiy jarayonlar sotsiologiyasi**
- 7. Deviant va delinkvent xulq-atvor**
- 8. Jamoatchilik fikrini o’rganish sotsiologiyasi**
- 9. Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o’tkazish usullari**

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida chuqur islohotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Bu islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu ta'limning tub maqsadi va mohiyatining o'zgarib borishi, uning aholi talab-ehtiyojlarini qondirishga qaratilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarning eng muhim tomonlaridan biri shundaki, ta'limning ijtimoiylashuvi va ta'lim tizimining insoniylashuvi (gumanizatsiyalashuvi)dan iborat bo'lib borayotganligidir. Bugungi kunda davlatimiz ta'lim tizimidagi professor-o'qituvchilar va talabalarni dunyoviy sotsial-gumanitar bilimlarni egallashga yo'naltirmoqda va shu orqali yaqin o'tmishdagi dogmatik, g'oyaviy turg'unlik holatlaridan xoli bo'lishga chorlamoqda.

Sotsial-gumanitar bilimlarni egallash jarayonlarida muhim o'rinni sotsiologik ta'limotlar egallaydi. Sotsiologik ta'limning muhim funksiyalaridan biri – bu sotsial tafakkurni shakllantirish, sotsiologik muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash va bartaraf etish yo'llari va imkoniyatlarini qidirib topishdan ham iboratdir.

Hayot bir joyda turg'un bo'lmaganidek, sotsiologiya fani ham rivojlanishdan to'xtab qolgani yo'q. Sotsiologiya fanini umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan o'rganish, pirovard amaliy maqsadga erishish, ya'ni totalitar tartibotlar tizimini inkor etish va xalqchillik, adolat hamda keng jamoatchilik fikri, intilishi, maqsadlari asosida ijtimoiy faoliyat yuritish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining rivojlanish imkoniyatlarini sotsiologiya fani doirasida tahlil qilish, o'rganish va olingan ilmiy-nazariy xulosalardan amaliyotda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda.

Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilan cheklanmaydi, balki uning asl mohiyatini va mazmunini atroflicha ochib beradi. Shu jihatdan sotsiologiya fani ijtimoiy fanlar orasida o'zining aniq va konkretligi, zimmasidagi masalalarga beradigan ilmiy javoblari atroflicha asoslangan, qayta-qayta tekshirilganligi bilan ham qimmatlidir. Bu

fan faqat hozirgi ijtimoiy holatlar ahvoliga to'laqonli javob berishi bilangina cheklanmasdan, ijtimoiy holatlarning istiqboliy o'zgarish darajasi xususida prognoz qiladi.

Mustaqil O'zbekistonning kelgusidagi ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishini o'rganish ko'p jihatdan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va uning nazariy xulosalarini umumlashtirgan holda mamlakat ichki siyosatining yo'nalishini belgilashda foydalanish muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Shu tufayli Respublikamizda sotsiologiya fanini yanada rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, barcha oliy o'quv yurtlarining turli mutaxassisliklari uchun o'rganilishi shart bo'lgan fan darajasiga ko'tarildi.

1-mavzu: “Sotsiologiya” fani predmeti, ob’ekti, vazifalari va ijtimoiy fanlar tizimidagi o’rni

1.1. Muhokama uchun savollar

1. “Sotsiologiya” fanini o'rganishdan maqsad nima?
2. Siz «Sotsiologiya» tushunchasining mohiyatini qanday tushunasiz?
3. Sotsiologiya faniga qanday ta'riflar berilgan?
4. Sotsiologiyaning ilmiy atamasining ma'nosini ayting?
5. Sotsiologiyada jamiyat qonunlari qanday o'rin tutadi?
6. Sotsiologiyaning ob'yekti va predmetini ta'riflashdagi eng yangi tendensiyalar?
7. Qanday sotsiologik tushunchalarni bilasiz?
8. Fanning qanday vazifalari mavjud?
9. Sotsiologiyaning asosiy kategoriyalarini sanab o'ting?
10. Sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlarini sanab o'ting?
11. Sotsiologik tafakkurning muhim jihatlari nimada?
12. Sotsiologiyaning ijtimoiy fanlar tizimidagi mavqei, roli va o'rniga baho bering?

1.2. Topshiriqlar


Topshiriq №1


Blits-o'yin savollariga javob berish

Guruh baxosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baxo	Fikrlar tartibi
					Statistika fani bilan bogliq
					O.Kont "Sotsiologiya" atamasiga ta'rif berdi
					Sotsiologiyaning tarmoqlarga bo'linishi
					T.Parsons "Sotsiologiya" atamasiga ta'rif berdi
					"Sotsiologiya" atamasi shakllandi
					Sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlari shakllandi
					Iqtisod fani bilan bog'liq

Topshiriq №2

«Loyiha» texnologiyasining asosi bo'lmish ketma-ketlik nazariyasiga asoslanib jadval-sxemalarni mazmuniga qarab to'ldirish





Topshiriq №3

Guruhlarga muhokama uchun topshiriq

1 – gurux

1.Sotsiologiya» fani savollari mohiyatini gapirib berish.

2 – gurux


Sotsiologiyaning tarkibiy qismi, vazifalari, maqsadlarini gapirib berish.

3 – gurux

Sotsiologik tushunchalar, ularning mohiyati va mazmunini yoritib berish.

4 – gurux

Sotsiologiyaning ijtimoiy fanlar bilan aloqasini gapirib berish



Topshiriq №3

Quyidagi faktlarni psixologiya, iqtisod va sotsiologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqing:

- a) er-xotin mebel xarid qilish masalasini muhokama qilyapti,
- b) kontrolyor transportda chiptalarni tekshiryapti,
- v) deputatlikka nomzod tashviqot olib boryapti

Topshiriq №4. Sotsiologiya asoschilari va boshqa sotsiolog olimlarning sotsiologiya predmeti haqidagi fikrlari (Jadval shaklida)

Sotsiologlar	Ularning fikrlari
1. Kont	
2. Dyurkgeym	
3. Veber	
4. Zimmel	
5.Smelzer	

Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar

1.»Sotsiologiya» terminini fanga birinchi bo'lib kim joriy etgan olim...

A. Sh.Monteske

V. M.Veber

B. O.Kont

G. P.Sorokin

2. Sotsiologiya tushunchasiga ta'rif berishga nisbatan qaysi yondashuv to'g'ri:

A. jamiyatshunoslikka oid yondashuv

V. konkret xulq-atvorga oid yondashuv

B. jamiyatshunoslik va konkret xulq-atvorga oid yondashuv

G. huquqshunoslikka yondashuv

3. Sotsiologiya fan sifatida qayerda vujudga kelgan?

A. AQSH

- V. G'arbiy evropa
- B. Lotin Amerikasi
- G. Sharqiy evropa

4. Sotsiologik bilimning qaysi darajalari mavjud:

- A. nazariy va empirik darajalar
- B. asosiy va o'rta darajalar
- V. yuqori va quyi darajalar
- G. mikro va makro darajalar

5. Sotsiologiyani fan sifatida shakllanishining ob'yektiv sababi...

- A. Texnika va ishlab chiqarishning taraqqiyoti
- V. Insonning absolyut ozodlikka intilishi
- V. Ijtimoiy tartibni tashkil etishning zaruriyati
- G. Ijtimoiy taraqqiyot nazariyasining ishlab chiqish zaruriyati

6. Quyidagilardan qaysi biri sotsial evolyusiya asoschisi hisoblanadi?

- A. N.Makovilli
- B. O.Kont
- V. G.Spenser
- G. M.Monten

7. Pozitivistik Sotsiologiyani g'oyaviy asosi nimada?

- A. Organizm
- B. Determinizm
- V. Uch bosqich qonuni
- G. Taqlid nazariyasi

8. Sotsiologiya qaysi fanlarga kiradi:

- A. Gumanitar fanlarga
- B. Ijtimoiy fanlarga
- V. Ijtimoiy va gumanitar fanlarga
- G. To'g'ri javob keltirilmagan

9. "Pozitiv falsafa kursi" asarining muallifi:

- A. K. Marks
- B. O. Kont
- V. M. Veber
- G. G. Spenser

10. Sotsiologiya oilani qanday o'rganadi?

- A. Birlamchi kichik guruh sifatida.
- B. Munosabatlar yig'indisi sifatida
- C. Sotsial institut sifatida
- D. Ijtimoiy-madaniy hodisa

2-mavzu: Sotsiologiyaning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari

2.1. Nazorat uchun savollar

1. Sharq jaxon sivilizatsiyasining markazlaridan biri sifatida?
2. Sharq mutafakkirlarining inson erki va tafakkur tarzi to'g'risidagi qarashlarining mohiyati nimada?
3. Sharqda sotsiologik qarashlarning shakllanish jarayonlarining asosiy xususiyati nimada?
4. Antik davr Sharq va G'arb ijtimoiy qarashlarida qanday farqlar bor?
5. Sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanish bosqichlari?
6. Klassik, noklassik Sotsiologiya namoyondalari kimlar?
7. Sotsiologiya fanining rivojlanishiga nimalar turtki bo'lgan?
8. O'zbekistonda Sotsiologiya fanining rivoji ahamiyati nimada?
9. Respublikadagi yirik sotsiolog olimlardan kimlarni bilasiz?

2.2. Blitz-so'rov savollari:

1. Sharq mutafakkirlarining inson erki va tafakkur tarzi to'g'risidagi qarashlarining mohiyati nimada?
2. Sharqda sotsiologik qarashlarning shakllanish jarayonlarining asosiy xususiyati nimada?
3. Klassik, noklassik Sotsiologiya namoyondalari kimlar?
4. O'zbekistonda Sotsiologiya fanining rivoji ahamiyati nimada?
5. Sotsial institutlarning qanday turlarini bilasiz?
6. Sotsial institutlarning vazifalari nimalardan iborat?
7. Sotsial institutlarning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
8. Al-Forobiy va uning ideal jamiyat to'g'risidagi qarashlari
9. Al-Beruniy va uning sotsiologik qarashlari
10. Ibn Sino va uning sotsiologik qarashlari

2.4. Topshiriqlar

Topshiriq № 1.

«PINBORD» texnikasi bo'yicha topshiriq

Antik	O'rta asrlar	Yangi davr

Topshiriq №2

Sotsiologiya fani rivojiga hissa qo'shgan mutafakkirlar **KAZUS (Ajurli arra pedagogik texnologiyasi asosida)**

1. Buyuk mutafakkir jamiyat rivojida mehnat takqsimotining rolining ta'kidlaydi va birinchi ma'lum stratifikatsiya nazariyasini ta'riflaydi. 2. U yaratgan ijtimoiy strukturada bosh element sifatida barqaror va normal faoliyat ko'rsatayotgan davlatning asosi hisoblanuvchi o'rta sinf amal qiladi. davlat shakllarini boshqaruvning uch to'g'ri va uch noto'g'ri shakllariga ajratib, davlat qurilishining ilk tasniflaridan birini taklif qiladi 3. Insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga g'zib qo'yilgan, shu bois u o'zi qilayotgan ishlarga ma'sul emas, degan nuqtai nazarini ham, qadariylarning, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarini ham tanqid qilib, inson yaxshi va g'mon amallarni o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi 4. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insoniylik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va xodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish xaqni	1. Abu Rayxon Beruniy 2. Platon 3. Aristotel 4. Al-Moturidiy 5. Abu Nasr Forobiy 6. O.Kont 7. G.Spenser 8. Ibn Sino 9. Yusuf Xos Xojib
---	--

tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga ma'sul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab berdi. 5. Dunyoning sotsiologik manzarasi evolyutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi. 6. Olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb hisoblaydi. Xamma narsaning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutloqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi 7. XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» asari ham ijtimoiy qarashlarga boy. Bu kitob axloq-odob ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirib, o'zida jam qilgan buyuk qomusiy asardir 8. Sen-Simonning kotibi, keyinchalik Parijdagi Politexnika maktabining imtixon oluvchisi va repetitori. Hozirgi zamon sotsiologiya fanining asoschisi. "Sotsiologiya" atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. 9. Ingliz faylasufi va sotsiologi, sotsiologiya fanining ikkinchi asoschisi. Uning eng muhim asarlari: "Sotsiologiya asoslari" (1876–1896), "Sotsiologiya o'rganish predmeti sifatida" (1903) va boshq. 10.	
--	--

Topshiriq 3

B.B.B. texnologiyasi

Tushuncha	Bilaman "+", Bilmayman "-".	Bildim "+", Bila olmadim "-".
-----------	--------------------------------	----------------------------------

Sotsiologiya atamasining talqini		
Sotsiologiyaning umumiy va xususiy konuniyatlari		
Sotsiologiya fanining funksiyalari		
Sotsiologiyaning yo'nalishlari		

Mavzu yuzasidan talabalar bilimni baholash uchun testlar

1. "Sotsiologiya" terminini fanga birinchi bo'lib qaysi olim kiritgan?

- A). Sh.Monteske
- B). M.Veber
- C). O.Kont
- D). P.Sorokin

2. Sotsiologiya fan sifatida qaerda vujudga kelgan?

- A). AQSh
- B). G'arbiy Evropa
- C). Lotin Amerikasi
- D). Sharqiy Evropa

3. Sotsiologiya fanining vujudga kelish davri...

- A). XX asr boshida
- B). XIX asr XX- 1-yarmida
- C). XIX-XIX asr boshlarida
- D). XIX asrning 1-yarmida

4. «O'z joniga qasd qilish» mavzusini ilk bor o'rgangan sotsilog...

- A). Z. Freyd.
- B). E. Fromm.

- C). E. Dyurkgeym
- D). M. Veber

5. D. Moreno “kichik guruhlar”ni tadqiq qilishda qaysi metoddan foydalanishni taklif qildi?

- A).Statistik metod
- B).Ekspert baholash metod
- C). Sotsiometriya metodi
- D).Test metodi

6. Sotsiologiyaga «sotsial mobillik» terminini kim kiritgan?

- A). M. Veber
- B). P. Sorokin
- C). R. Merton
- D). T. Parsons

7. «Temur tuzuklari»da qanday muammo asosiy sifatda yoritiladi?

- A). Axloqiy
- B). Davlat va saltanat ishlari
- C). Insonparvarlik
- D). Manaviy-marifiy

8. Pozitivizm yo’nalishi bu...

- A). Naturalizm, evolyutsionizm, mexanizm,
- B). Struktura funktsionalizm, fenomenologiya
- C). Konflikt, neomarksizm
- D). Simvolik interaktsionizm

9. Ilk bor « Sotsial dinamika» va «Sotsial statika» tushunchalarini sotsiologiyaga joriy etgan olim.

- A).Aristotel
- B) . Forobiy
- C). O.Kont
- D).M.Veber

10. Quyidagi olimlardan qaysi biri sotsial evolyutsiya asoschisi hisoblanadi?

- A). N. Makiovelli
- B). O.Kont
- C). G. Spenser
- D). M. Monten

11. Sotsiologiyadagi pozitivizmning asoschisi kim?

- A). G. Spenser
- B). Sen-Simon
- C). O.Kont
- D). K. Marks

12. Jamiyatni organizm sifatida talqin qilgan olim kim?

- A). Vorms
- B). Kont
- C). Spenser
- D). Dyurkgeym

13. Sotsiologiyada ilk bor uch bosqich qonunini kim joriy qilgan?

- A). O.Kont
- B).G. Spenser
- C). E.Dyurkgeym
- D).M. Veber

14. Antik davrning muhim sotsiologik muammolarining tadqiqotini ifoda etgan «Siyosat» asarining muallifi kim?

- A). Geraklit
- B). Platon
- C). Aristotel
- D). Demokrit

15. «Jamiyatni faylasuflar boshqarishi lozim» degan ibora muallifi

- A). M. Veber
- B). G. Spenser
- C). Platon
- D). E. Dyurkgeym

16. Sotsiologiyada gumanistik oqim asoschisi kim?

- A). O.Kont.
- B). E.Dyurkgeym
- C). P.Sorokin
- D). M.Veber

17. Sotsiologiyada «Pozitivizm» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A). Yangi
- B). Ijobiy
- C). Salbiy
- D). Intilish

18. «Pozitiv falsafa ruhi» asarining muallifi...

- A). Platon
- B). Aristotel
- C). R. Spenser
- D). O. Kont

19. Sotsiologiya dastlab qanday nom bilan atalgan?

- A). Siyosiy arifmetika
- B). Tarixiy tahlil
- C).Sotsial fizika
- D). Metafizika

20. O. Kont ta'biricha sotsiologiya qaysi fanga ko'prok tayanishi kerak?

- A). Ximiya
- B). Falsafa
- C). Biologiya
- D). Astronomiya

3-mavzu. Jamiyat dinamik tizim sifatida. Ijtimoiy stratifikatsiya

3.1. Muhokama uchun savollar.

1. Jamiyat nima?
2. Fuqarolik jamiyatining asosiy belgilari?
3. Jamiyatning mazmuni, tarkibi va funksiyalari tizimlar sifatida
4. Jamiyatning dinamik tizim ekanligi
5. Jamiyatning qanday turlari mavjud?
6. stratifikatsiya tushunchasiga ta'rif bering?
7. Sotsial stratifikatsiyaning tarixiy turlari?
8. Vertikal va gorizontal stratifikatsiya to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya masalalari tahlili
10. P.Sorokin bo'yicha sotsial stratifikatsiyaning qanday turlari mavjud

Topshiriq №2

«Tushunchalar tahlili» uslubidagi tarqatma metariallar.

Tushunchalar	Mazmuni
Jamiyat	
Jamoa	
Dinamik tizim	
An'anaviy jamiyatlar	

Zamonaviy jamiyatlar	
Postindustrial jamiyat	
Ijtimoiy stratifikatsiya	
Tabaqalar	
Toifalar	

Topshiriq №3

3. Sotsiologiyada ijtimoiy stratifikatsiyaning to'rt asosiy tipini ta'riflang

Quldorlik	
Kasta	
Tabaqa	
Sinf	

Topshiriq №4

Birinchi Prezident I.A.Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...” asarida mamlakatimizda jahon talablari darajasida bir qancha yo'nalishlarda ilmiy maktablar yaratilganligini aytib o'tgan. Shu maktablarni jadval ko'rinishida izohlang.

Maktablar	Fanlar tizimi
-----------	---------------

Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar

1. «Jamiyatni universitetlar boshqaradi» degan nazariya qaysi jamiyatga xos?
 - A. Sanoatlashgan jamiyat
 - B. Postindustrial jamiyat
 - C. Demokratik jamiyat
 - D. Avtoritar jamiyat
2. Jamiyat hayotida oilaning qaysi funktsiyasi asosiy rolni o'ynaydi?
 - A. Reproduktiv
 - B. Iqtisodiy
 - C. Rekreativ

D. Siyosiy

3. Totalitar jamiyat uchun qaysi xususiyat xarakter kasb etadi?

- A. Kishilar va jamiyat ustidan mutlaq kuchli harbiy nazorat
- B. Jamiyatni konstitutsiya va qonunlar asosida boshqaru
- C. Jamiyat qonunlarining yakka shaxsga bo'ysundirilishi
- D. Konstitutsiya va qonun bor, lekin ular ishlamaydi

4. Sotsial stratifikatsiya deganda nimani tushunasiz?

- A. Jamiyatdagi sotsial notenglikning ifodalanishi
- B. Jamiyatdagi millatlararo munosabatning ifodalanishi
- C. Jamiyatdagi sotsiomadaniy xususiyatlarning ifodalanishi
- D. Jamiyatdagi sotsial birdamlikning ifodalanishi

5. XX- asrning 70- yilarida paydo bo'lgan ijtimoiy nazariyani aniklang.

- A. Ochiq jamiyat
- B. Yopiq jamiyat
- C. Industrial jamiyat
- D. Postindustrial jamiyat

6. «Industrial jamiyat» nazariyasi qachon shakllangan?

- A. 1950-60-yillarda
- B. XX asrning boshlarida
- C. XX asrning 80-90-yillarida
- D. XX1 asr boshida

7. Informatsiya va xizmat ko'rsatish sohalari ijtimoiy taraqqiyotning ta'minlovchi omillarga ega bo'lgan jamiyat qaysi?

- A. Agrar jamiyat
- B. Industrial jamiyat
- C. Postindustrial jamiyat
- D. Totalitar jamiyat

8. Zamonaviy G'arb jamiyatida o'rta sinf salohiyati...

- A. 20-25. %

- B. 60-70%
- C. 30.-40%
- D. 10-15%

9. Jamiyatni organizm sifatida talqin qilgan olim kim?

- A. Vorns
- B. Kont
- C. Spenser
- D. Dyurkgeym

10. Qanday stratifikatsion tizim ochiq hisoblanadi?

- A. Kasta
- B. Qatlamli
- C. Sinfiylik
- D. Totalitar

11. Avtoritar jamiyatga xos xususiyat...

- A. Bir partiyalik va terror
- B. Shaxsning siyosiy erkinliklarini cheklash
- C. Davlat mafkurasining hukmronligi
- D. Jamiyatni demokratik printsiptda asosida boshqarish

12. Industrial jamiyatga qanday xususiyatlar xos?

- A. Axborotni ishlash va qayta ishlash.
- B. Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish
- C. Turmush tarzi pastligi.
- D. Qadriyatlardan voz kechish

13. "Sotsial stratifikatsiya" tushunchasi qaysi fandan kirib kelgan?

- A. Falsafadan
- B. Biologiyadan
- C. Geologiyadan
- D. Siyosatshunoslikdan

14. Qaysi holat demokratik jamiyatga xos emas?

- A. Hokimiyatning 3 tarmoqqa bo'linishi
- B. Konun ustuvorligi
- C. Bir ukladli iqtisod
- D. Inson xuquqlariga amal qilinishi

15. Ozchilik hokimiyati- . . . dir.

- A. Monarxiya
- B. Oligarxiya
- C. Aristokratiya
- D. Respublika

4-mavzu. Shaxs sotsiologiyasi

4.1 Nazorat uchun savollar

1. Inson shaxsini namoyon etuvchi qanday darajalar mavjud
2. Shaxsga ta'rif bering?
3. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarini aytib bering?
4. Shaxsning ijtimoiy muxit bilan o'zaro aloqasi bosqichlari turlarini aytib bering?
5. Shaxsning xususiyatlarini aytib bering?
6. Shaxs maqomiga qachon erishiladi?
7. Shaxsning ijtimoiy muxit bilan o'zaro aloqasi necha bosqichda amalga oshadi?
8. Ijtimoiylashuv mexanizmida qanday tizimlar katta o'rin tutadi?
9. Hozirgi davr shaxslariga xos necha xildagi xususiyatlar mavjud?
10. Ijtimoiylashuv jarayoni adaptatsiya (moslashishi), o'qish (ta'lim olish), tarbiya (xulqni yaxshilashga qaratilgan maqsadli jaraèn), ulg'ayish, o'sish (jismoniy barkamollikka erishish) jarayonlaridan nimasi bilan farqlanadi?

4.2 Topshiriqlar

Topshiriq №1

“INSERT” jadvali

“INSERT” jadvali bilimlarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish, avval o’zlashtirgan ma’lumotlarni bog’lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bunda o’qituvchi insonni tushunishdagi nazariyalarga talluqli matnlardan iborat tarqatma materiallar kichik guruxlarga tarqatiladi.

1. Ma’ruza matnini o’qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo’yib chiqish so’raladi:


- V – bilaman
- + – men uchun yangi ma’lumot
- - –men bilgan ma’lumotni inkor qiladi
- ? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo’shimcha ma’lumot.
-

№	Mavzu savollari	V	-	+	?
1	Individ				
2	Shaxs				
3	Modal shaxs				
4	Marginal shaxs				
5	Pragmatik shaxs				
6	Komil inson				
7	Kognitiv nizolar				
8	Kuli Ko’zgudagi Men nazariyasi				
9	Biologik irsiyat				
10	Almashinuv nazariyasi				

Topshiriq № 2

Savol	Nima uchun shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit ustuvor hisoblanadi?
(F)Fikringizni bayon eting	
(S)Fikringiz bayoniga sabab ko’rsating	

(M)Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U)Fikringizni umumlashtiring	



Forobiy fikricha, inson o'z-o'zidan baxtli bo'la olmaydi, bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunarni egallashiga, bilimiga bog'liq. «... Inson yuksak kamolotga erishuvi yo'lida harakat qilganidek, aqliy ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o'zi o'ylayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi». **A.Beruniy** “odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. **Ibn Sino**, “Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so'zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi”, deb hisoblaydi. Inson o'z hayotining me'mori, ijodkori bo'lmog'i, o'zida fozila xislatlar, iste'dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudod. YOlg'izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi. **Bu fikrlarga sizning munosabatingiz.....**

Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar

1. Shaxs atamasi dastlab nima degan ma'noni anglatgan?
 - A. Niqob
 - V. Mavqe
 - S. Individ
 - D. Obro'

2. Sotsiologiya fanini maxsus va tarmoq yo'nalishlarga ajratib turuvchi "o'rtacha daraja" nazariyasining asoschisi kim?
 - A. R. Merton
 - V. T. Parsons
 - S. P. Sorokin
 - D. Adorno

- 4 Shaxs sotsiologiyasini o'rganishdagi yirik mutaxassislar kimlar.
 - A. T. Parsons. R. Lipton M. Kon Ch. Kuli
 - V. L. Uord Tard. Giddings
 - S. Darendorf, Aron, Rostou
 - D. Kont, Spenser, Veber

5. Ko'pchilik sotsiologlar shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini qaerda boshlanadi deb hisoblaydilar?
 - A. Oila
 - V. Maktab
 - S. Do'stlar davrasida
 - D. Ish kollektivida

6. Ijtimoiylashuv individ hayotining qaysi davrlaridafaoliyat ko'rsatadi?
 - A. Yoshlik
 - V. Butun hayot davomida

- S. Bolalik
- D. Mehnat davrida

7. Ijtimoiylashuv tushunchasini izohlab bering?

- A. O'zlashtirish
- V. Ulg'ayish
- S. O'rgatish
- D. Barchasi

8. Shaxs sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) qanday bosqichlarga bo'linadi?

- A. Birlamchi va ikkilamchi birlamchi
- V. Ikkilamchi
- S. Maishiy xizmat qilish jarayoni rivoji
- D. Bosqichlari yo'q

10. Sotsiometriya usuli orqali qanday munosabatlar o'rganiladi.

- A. Shaxslararo munosabatlar
- V. Iqtisodiy munosabatlar
- S. Faqat siyosiy munosabatlar
- D. Yoshlarga oid munosabatlar

11. Ijtimoiy betinchlik bu....?

- A. Ko'plab kishilarning ichki keskinligi, tarangligi bo'lib, u faoliyatining tartibsizligi va muvofiqlashtirilmaganligida ifodalanadi
- V. Tashkil etilmagan guruhlarda, olomon ichida odamlarning faoliyati jamiyatning shakllangan tartibiga zid turadi
- S. Ijtimoiy o'zaro ta'sirning bu shaklida kishilar bir-birlarining kayfiyati, xis-hayajonini ifodalaydi
- D. Xulq-atvorning tartibsiz xarakteri

12. Ijtimoiy o'zaro ta'sirning tiplari kim tomonidan ajratib ko'rsatilgan?

- A. P.Sorokin

V. Darendorf
S. Muso CHalabiy
D) Ioan IV Paleolog

13. Taassurotlarni boshqarish nazariyasi asoschisi kim?

A. E. Gofman
V. Dj. Mid, T. Blumer
S. Dj. Xomans, P. Blau
D. Z. Freyd

14. Zamonaviy jamiyat haYotida begonalashuvning qanday turlarini ajratib ko'rsatish mumkin?

A. Siyosiy
V. Iqtisodiy
S. Ijtimoiy
D. Barcha javoblar to'g'ri

15. Konformlik nima?

A. Bu guruhning ta'siriga berilish
V. Boshqa shaxslar ta'sirida o'z xatti-harakatini o'zgartirish
S. Atrofdagilar bilan nizoga kirishmaslik uchun ongli ravishda ularga yon bosish
D. Barcha javoblar to'g'ri


6-mavzu. Iqtisodiy-siyosiy jarayonlar Sotsiologiyasi

6.1. Muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodining asosi nima?
2. Jamiyatning qanday ko'rinishlari mavjud?
3. Mehnat jarayoni o'zida nimani aks ettiradi?
4. Mehnat jamoalarining qanday turlari mavjud?
5. O'z – o'zini boshqaruv tushunchasi nima?
6. Mahalla demokratiyasi nima?
7. Bozor iqtisodiyotiga o'tish asosiy tamoyillari qanday?
8. Mexnat jamoasi qanday tariflanadi?

6.2 TOPSHIRIQLAR

“Nima uchun?” texnikasidan foydalanib “Nima uchun iqtisodiyot ijtimoiylashib bormoqda?” savolini echish



3. T – sxema asosida mehnat tashkilotlari asosiy guruhlarini ajratiladi

Sanoat, davlat – ma’muriy organlari apparati, sog’liqni saqlash, moddiy – texnik ta’minlash, xalq ta’limi, qishloq xo’jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qilish, san’at, sug’urta qilish, ishlab chiqarishga xizmat qilish bo’yicha yuk transporti, ijtimoiy ta’minot, ilm, jamoatchilik tashkilotlari, qurilish, kreditlash, o’rmon xo’jaligi

Ishlab chiqarish tarmoqlari	Noishlab chiqarish tarmoqlari

6-mavzu. Ma’naviy hayot Sotsiologiyasi

6.1. Mavzu bo’yicha savollar

1. Siz «Avesto» to’g’risida nimalarni bilasiz?
2. Zardo’shtiylikning asosiy mohiyati nimada deb o’ylaysiz?


3. Moniy falsafasining mazmunini aytib bera olasizmi?
4. Mazdak ta'limoti nimaga da'vat etadi?
5. Siz Islom dini to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Tasavvufda komil inson taomilini siz qanday tasavvur qilasiz?
7. Tasavvufdagi qubraviya, yassaviya va naqshbandiya tariqatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Mashhur muhaddislardan kimlarni bilasiz?
9. Sizning nazaringizda diniy bag'rikenglik nima?
- 10.«Ma'naviy merosni bilmay turib, mustaqillikning mafkurasini yaratib bo'lmaydi» degan fikrni qanday tushunasiz?
11. Dinning belgilari nimalardan iborat?
12. Fan va inovatsiya faoliyati samarasini belgilovchi komponentlarga nimalar kiradi

Topshiriq №3

1. «Hozirgi davrda ma'naviyat rivojiga xissa qo'shuvchi omillarning o'rni?» savolni yo'naltiruvchi uslublar tavsiyasi yordamida jadvalga javob berish.

Yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar: Din, fan Madaniyat omillari.

Savol	
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab kerak	
(M) Ko'rsatgan sababni isbotlovchi dalillar keltiring	
(U) Fikrlarni umumlashtiring	



Bir tanishingizni G'arbdan bizga kirib kelayotgan "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari bo'lgan turli xil sektalardan "Emmolar" sektasiga qiziqib qolganligini eshitdingiz. Shunda boshqa bir

tanishingiz bu bir bekorchilik ko'rinishlari va bizga umuman yot narsa ekanligini ta'kidladi. Shunga qaramay yuqoridagi tanishingiz bu guruhga qiziqayotganligini va hatto unga a'zo bo'lish istagida ekanligini aytdi.

Keys yuzasidan savollar:

Shunda siz unga qanday maslahat bergan bo'lar edingiz?

Umuman siz bunday sektalarga kirayotgan yoshlarga qanday qaraysiz?

7-mavzu. Deviant va delinkvent xulq-atvor

7.1 Nazorat uchun savollar

1. Deviant xulq – atvor deganda nimani tushunasiz?
2. Deviant xulq – atvorning qanday turlari mavjud?
3. Ijtimoiy nazorat institutlari nima? Qanday vazifani bajaradi?
4. Shaxs shakllanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
5. Ijtimoiy me'yor va me'yordan chekinishlar nimani anglatadi?
6. Nima uchun deviant hulq-atvor shakllanadi?
7. deviant xulq – atvor shakllanishining sabablari?
8. Yoshlar Sotsiologiyasi nimani o'rganadi?
9. Deviant hulk-atvorni o'rganishning ahamiyati nimada?
10. Ijtimoiy o'zgaruvchanlik nima?

«Blits-so'rov» savollarining jadvali savol-javob vaqtida to'ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1.	Axloq nima?	
2.	Ijtimoiy o'zgaruvchanlik turlari?	
3.	Nima uchun “O'zbekiston yoshlar mamlakati” deb ataladi?	
4.	«16-30 yosh» nimani anglatadi?	
5.	Ijtimoiy me'yor deganda nimani tushunasiz?	
6.	Ijtimoiy nazorat institut turlarini sanang?	


7.1 Topshiriqlar

1. «Nima uchun ?» texnikasidan foydalanib savolning javoblarini jadval-sxemalariga yozib to'ldirish.

Nima uchun ?»
uchun ?»

Nima uchun ?»


Nima



2. T – sxema jadvali asosida xulq – atvor turlarini mazmuniga qarab belgilash

Jamoatchilik, intiluvchanlik, ichkilikbozlik, ma'suliyatlilik, yolg'onchilik, rostgo'ylik, o'g'rilik, ishchanlik, dangasalik, giyohvandlik, jinoyatchilik, fohishabozlik, alkogolizm, byurokratiya, demokratiya, boqimandachilik, mahalliychilik, vijdonlilik, donolik.

Me'yordagi xulq – atvor	Deviant xulq – atvor



Vaziyat

Ko'chada biror kishining yonidan o'tish, tanish odam bilan salomlashish va unga bir necha so'z aytish, bularning hammasi arziyas shunchalik arziyas va qiziqarsizmi, kun davomida ular haqida mutlaqo o'ylamay yuz marta qaytaramiz. Sizningcha ijtimoiy xulq atvorning arziyas jihatlari bilan shug'ullanish qay darajada muhim?

8-Mavzu: Jamoatchilik fikrini o'rganish Sotsiologiyasi

8.1 Mavzu bo'yicha savollar

1. Jamoatchilik fikri o'zi nima?
2. Axloq va jamoatchilik fikrining o'zaro bog'liqligini ochib bering ?
3. Mish-mish va yolg'on axborotlar qanday jamoatchilik fikriga ta'sir qiladi?
4. Jamoatchilik fikri va mahalla o'rtasida qanday aloqadorlik bor?
5. Jamoatchilik fikri qanday ijtimoiy vazifalarni bajaradi?
6. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy xususiyatlari?
7. Jamoatchilik fikri qanday yo'llar bilan shakllanadi?

8. Jamoatchilik fikrining shakllanishida OAV ning roli nimada namoyon bo'ladi?

8.1. Topshiriq

1-guruh:

1-topshiriq. Jamoatchilik fikri tug'ri èki noto'g'ri ekanligi qanday isbotlash mumkin..

2-topshiriq. «Aqliy hujum» asosida quyidagi muammoli savolga javob bering.

Mish-mishlarda haqiqat mo'loq .

2-guruh:

1-topshiriq. Quyidagi fikrni to'g'ri èki noto'g'riligiga javob bering. Javobni asoslang.

Jamoatchilik fikri hamisha adashadi.

2-topshiriq. Hokimiyat hamisha jamoatchilik fikri bilan hisoblashadi desak xato bo'lmaydimi?

3-guruh:

1-topshiriq. Quyidagi fikrni to'g'ri èki noto'g'riligiga javob bering. Javobni asoslang.

Jamoatchilik fikri bilan barcha insonlar xisoblashadi.

2-topshiriq. Jamoatchilik fikri asosini èlg'onlar tashkil etadi.

“Blits-so'rov”: Jamoatchilik fikrini o'rganish Sotsiologiyasi.

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Savollar
					Jamoatchilik fikri deganda nimani tushinasiz va uning qanday turlarini bilasiz
					Jamoatchilik fikri qanday vazifalarni bajaradi
					Referendum nima
					Jamoatchilik fikri tushunchasi va uning nazariy asoslari nimalardan iborat

					Jamoatchilik fikrining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishini izohlab bering
					O'zbekistonda «Ijtimoiy» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi faoliyati haqida nima bilasiz

2. “Muammo” texnologiyasi: Jamoatchilik fikrini o'rganish Sotsiologiyasi

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari, sizning harakatingiz
Dezinformatsiya- soxta axborot		

4. Jadvalni to'ldiring.

Fanlar			
Tushunchalar	Sotsiologiya	Psixologiya	Iqtisodiyot
Meditatsiya			
Ehtiyotkorlik			
Kommunizm			
Submadaniyat			
Tovar			
Samaradorlik			
Kamqonlik			
Refleks			
Marginallik			
Sezgi,xis-tuyg'u			
Jamoa			
Flegmatik			
Saldo			
Emotsiya			

Sindikat			
Anketa			
1Ijtimoiylashuv			
Achchiqlanish			
Broker			

Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar

1. Jamoatchilik fikrining tarkibiy qismlari qaysi qatorda berilgan.

- a) fikr, tasavvur, muxokama, qarashlar
- b) muloxazalar, ishonch, e'tiqod
- v) lafz, fikr yakdilligi, plyuralizm
- d) barcha javob to'g'ri

2. Jamoatchilik fikri termini ilk marta qaerda qo'llanilgan.

- a) Fransiya
- b) Germaniya
- v) Angliya
- d) Ispaniya

3. Jamoatchilik fikri termini ilk bor qaysi fanda o'rganilgan.

- a) siyosat
- b) falsafa
- v) iqtisod
- d) huquq

4. Jamoatchilik fikrining turlaridan qaysi biri noto'g'ri.

- a) regulativ
- b) tarbiyaviy
- v) axborot
- d) bashorat

9-Mavzu: Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish usullari

9.1. Nazorat uchun savollar

1. Sotsiologik tadqiqot dasturi necha qismdan iborat?
2. Nazariy – metodologik bo'lim nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Amaliy – uslubiy bo'limda nimalar aks ettiriladi?
4. Tadqiqot qanday usullardan foydalaniladi?
5. Kuzatuv usulining qanday turlari bor?
6. So'rov usulining turlarini sanang?
7. Tadqiqotlar natijalari qanday tahlil etiladi

Topshiriq

1. “Insert” jadvalini to'ldirish


Mavzu savollari	V	-	+	?
Sotsiologik tadqiqot dasturi va uning bosqichlari				
Sotsiologik tadqiqot usullari				
Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish				
Sotsiologik tadqiqot natijalarini tahlil etish va umumlashtirish				

2. T – sxemasi asosida savollarga javobni organayzerda to'ldirish

Sotsiologik tadqiqotlarning 4 asosiy usulining afzalliklari va kamchiliklari.

Kuzatuv, so'rovlar, xujjatli tadqiqot, eksperiment

Afzalligi	Kamchiligi



Savollarni qo'yish ilmini birinchi bo'lib qadimgi yunon faylasufi Sokrat yaratgan: u Afina ko'chalarida o'zining ustalik bilan o'ylab topilgan savollari bilan yo'lovchilarni mushkul ahvolga solib qo'ygan. Bugungi kunda so'rov metodini sotsiologlardan tashqari jurnalistlar, shifokorlar, tergovchilar, o'qituvchilar ham qo'llaydilar.

Xo'sh, ulardan sotsiologik so'rovning farqi nimada?

Mavzu yuzasidan test savollari.

1. Sotsiologik tadqiqot dasturi nimadan boshlanadi?
 - A. Tadqiqotni tashkil etish
 - B. Muammoning qo'yilishi
 - C. Obektni tasvirlash
 - D. Respondentlarni tanlash
2. Quyidagilardan qaysi biri eng ommaviy empirik metod hisoblanadi?
 - A. Hujjatlarni o'rganish
 - B. Eksperiment
 - C. So'rov

D. Kuzatish

3. Empirik tadqiqotlarda necha kishi qatnashishi maqsadga muvofiq?

A. 1000 kishi

B. 1200 kishi

C. 2000 kishi

D. Tadqiqot xususiyatiga qarab belgilanadi

4. Ilk empirik tadqiqotlar qachon o'tkazilgan?

A. XIX asrda

B. XX asrda

C. XIX asrda

D. XXI asrda

5. Fundamental Sotsiologiyaning maksadi...

A. Sotsial vokelikning ruhiy ko'rinishi

B. Sotsial reallikning mohiyati

C. Sotsial olamning to'liq tasvirini yaratish

D. Nazariy asoslarni ishlab chiqish

6. Gipoteza deganda tushunamiz...

A. Ilmiy tahlil

B. Ilmiy taxmin

C. Muammoning qo'yilishi

D. Muammoni tasvirlash

7. Maxsus va tarmoq Sotsiologiyasibilan shug'ullanadi.

A. Empirik malumotlar to'plash

B. Jamiyat rivoji qonunlarini o'rganish

C. Jamiyat hayotining alohida tizimchalari tahlili

D. Makrotizim tahlili

8. Gellap jamoatchilik fikrini o'rganish instituti qaysi mamlakatda faoliyat ko'rsatadi?

A. Germaniya

B. Frantsiya

C. AQSH

D. Norvegiya

9. Qo'yidagilarning qaysi biri so'rov metodiga kiradi?

A. Hujjatlarni analiz qilish

- B. Kuzatish metodi
 - C. Eksperiment
 - D. Intervyu
10. Respondent deganda kimni tushunasiz?
- A. Tadqiqot o'tkazuvchi
 - B. Tadqiqot dasturini tuzuvchi
 - C. Tadqiqot savollarini tuzuvchi
 - D. Tadqiqot savollariga javob beruvchi
11. Intervyuer deganda kimni tushunasiz?
- A. Tadqiqot o'tkazuvchi
 - B. Tadqiqot dasturini tuzuvchi
 - C. Tadqiqot savollarini tuzuvchi
 - D. Tadqiqot savollariga javob beruvchi
12. Sotsiologik tadqiqotlarda axborot yig'ishda keng tarqalgan metod qaysi?
- A. So'rov
 - B. Hujjatlarni tahlil qilish
 - C. Kuzatuv
 - D. Sotsial eksperiment
13. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar qanday sharoitlarda o'tkaziladi?
- A. Etarli mablag' bo'lganda
 - B. SHaroit takozo etganda
 - C. Anketa savollari tayyor bo'lganda
 - D. Sotsial buyurtma mavjud bo'lganda
14. Empirik Sotsiologiya birinchi bo'lib qayerda vujudga kelgan?
- A. G'arbiy evropada
 - B. Rossiyada
 - C. AQSHda
 - D. Sharqda
15. Reprezentativlik deganda quyidagini tushunish lozim.
- A. Empirik amaliy malumot
 - B. Tadqiqot muammosiga oid barcha tushunchalar
 - C. Tadqiqotning asosiy maqsadini aniqlash
 - D. Bosh to'plam xususiyatlarini saralanganida aks etish

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:, “O‘zbekiston”, 2014 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida“ gi Qonuni 2016 yil 15 sentabr
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida“ gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining akademiklari faoliyatini yanada takomillashtirish va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ gi Farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va miliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi 2017 yil 3 martdagi Qarori.
8. Karimov I.A. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". T 2015.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T 2011.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. T.8. - T.: “O‘zbekiston”, 2000.
11. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.:«Ma’naviyat», 2008.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.- 48 b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
15. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.
16. Aliqoriev N.S. va b.Umumiy sotsiologiya. – Toshkent.: 1999.
17. Bekmurodov M.B. Sotsiologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 1994.
18. Xolbekov. A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o'quv qo'llanma). –Toshkent.: «Akademiya». 2007.
19. Abdurahmonov F.R., Saitxodjayev X.B. Sotsiologiya. –T., 2000.
20. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). – Toshkent.: «Ijtimoiy fikr». 2001.
21. Aliev B., Rafiqov G'., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). –Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
22. Sotsiologiya //O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi,2002.
23. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) T.1999.
24. Umarova R. «Sotsiologiya.» O'quv qo'llanma. - T. TMI, 2010.
25. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: siyosiy tahlil. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
26. Sotsiologiya. Prof. V. M. Karimova tahriri ostida.–T., 2000.

27. Umumiy sotsiologiya. Ilmiy muharrir falsafa fanlari doktori M.S.Aliqoriyev. –T., 1999.
28. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi /K. Abduraxmonovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O’qituvchi, 2001.
29. Umrzoqov B. Mehnat munosabatlari va mentalitet / Mas’ul muharrir Q. Abdurahmonov. – T.: O’zbekiston, 2005.
30. O’zbekistonning yillik statistik to’plami-2008. -Toshkent: Nur Poligraf, 2009.
31. Максакова Л.П. Миграция и рынок труда в странах Средней Азии.-Тошкент: Брейд-Стайл. 2002.
32. Осипов ГВ, Москвичев Л.Н. Социология. –М., 2003.
33. Sotsiologiya //Uchebnoe posobie. Pod redak. prof. Lavrenenko V.N. –Moskva.: «YuNITI». 2012.

Qo’shimcha adabiyotlar

34. Parmanov F.Ya. Migratsiya: vatangado musofir. Monografiya. Sano-ekspert. T.: 2015.
35. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot. 1993.
36. Гараджа. В.И. Социология религии. – Москва.: “Имфра-М”.2005.
37. Giddings E. Sotsiologiya. – Toshkent.: 2005.
38. Современная западная социология. Словар. – Москва.: “Прогресс”. 1990.
39. Saitxodjayev H.B. Sotsiologiya. Ma’ruzalar kursi. – Toshkent.: «Akademiya». 2008.

Internet saytlar:

40. <http://www.gov.uz> O’zbekiston Respublikasining hukumat portali
41. <http://www.lex.uz> O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
42. <http://www.google.uz> Veb-qidiruv saytining uz domeni
43. <http://www.ziyonet.uz> ta’lim portali

